

## O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA TERMINLARNING EMOTIONAL BILAN BOG'LIKLIGI

**Qasimova Muqaddas Abdumutalibovna**

*Nemis tili o'qituvchisi, O'zbekiston, Andijon viloyati,  
Andijon shaxar 4 - umumta'lim maktabi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Lingvopragmatikaning maqsadi "Tilni kontekstda o'rganish" - ijtimoiy, situatsion va boshqalar, ya'ni tilni aloqa vositasi sifatida o'rganishdir. Hozirgi vaqtda pragmatik nazariya va amaliyotning chegaralari hali to'liq aniqlanmagan, huddi boshqa sohalar, nutq tahlili, shuningdek, sotsial, etno va psixolingvistika, antropologiya kabi. Shuning uchun ushbu maqolada so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan flora sohasidagi ayrim terminlarning lingvopragmatik aspekti va muammolarini yoritishga harakat qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *Termin, flora, omonimiya, sinonimiya, yaxlitlik, toksonomiya, lingvopragmatika, aspect, ekspressivlik, emotsionallik.*

Bugungi taraqqiy etayotgan zamonamizda har qanday sohada integratsiya va jadallashish jarayoni yuz bermoqda. Bu nafaqat jamiyatdagi tashqi muhitgagina emas, balki ichki muhitga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Rivojlanish va taraqqiyot o'z navbatida har bir millatning tili va madaniyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Shu o'rinda tilshunoslikdagi termin atamasi ham o'z navbatida ayrim o'zgarish va yangiliklarga uchrayotgani ham bejiz emas. Aytishimiz mumkinki, termin ilmiy uslubning o'zagi, fan tilining so'nggi, eng ichki doirasi, yetakchi, eng muhim belgisidir. Shu bilan birga termin ilmiy uslubning asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan va ilmiy aloqa vazifalariga nihoyatda mos keladigan tushunchadir. Shuningdek termin - fanning predmeti, hodisasi yoki tushunchasini aniq nomlaydigan va uning mazmunini ochib beruvchi so'z yoki ibora ham bolishi mumkin. Bu atama ilmiy asoslangan ta'rifga asoslanadi.

M. M. Glushkoning ta'kidlashicha, "Termin - bu o'zining qat'iy va aniq ta'rifi tufayli aniq semantik chegaralarga ega bo'ladi. Shuning uchun tegishli tasniflash tizimi doirasida bir ma'noli bo'lmagan tushunchalarni ifodalash va obyektlarni bildirish uchun ifodalanadigan so'z yoki iboradir" [1]. Termin haqida turli olimlarning turlicha qarashlari mavjud masalan, A.A. Reformatskiy atamalarni "ekspressivlikdan mahrum bir ma'noli so'zlar" deb ta'riflaydi [2].

Tilshunoslikda har bir tushunchaning eng aniq, konsentrlangan ifodasi mavjud. Masalan, "kitob" ma'lum bir axborot yoki ma'lumot berishda, shuningdek o'quvchiga bilim beruvchi qo'llanma ekanligi ilmiy ta'rifidir. Kundalik til so'zlari va terminlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar tilshunoslikning alohida tarmoqlari terminologiyasini aniqlashni qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan, A. D. Shvaytser

kundalik tildagi so'zlarni, agar ular o'ziga xos ma'no bermasa, terminlar qatoridan chiqarib tashlashni taklif qilgan [3].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytib o'tishimiz lozimki, terminlar ma'no jihatdan cheklangan bo'lib, bu degani termin bir ma'noli so'z sifatida reallashadi. Terminlar emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Hattoki gapirish ohangi ham termin ma'nosini o'zgartira olmaydi. Ko'p ma'nolilik va sinonimiya terminning amal qilish xususiyati va maqsadiga ziddir. Biroq, ma'lum bir predmetli vaziyatni, muayyan ilmiy-texnik sohani tavsiflashda terminlar ularni noto'g'ri talqin qilishga yo'l qo'ymaydi. Terminning xarakterli xususiyati semantik chegaralarning aniqligi bo'lganligi sababli, u oddiy so'zlarga qaraganda kontekstga nisbatan ancha katta mustaqillikka ega. Xuddi shu sabablarga ko'ra, termin bir ma'noli va shu ma'noda kontekstdan mustaqil bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, u har qanday matnda qo'llanilishining barcha holatlarida uning ta'rifi bilan ko'rsatilgan aniq ma'noga ega bo'lishi kerak, shunda atama foydalanuvchilari har safar bu yerda mumkin bo'lgan ma'nolardan qaysi birida ishlatilishini hal qilishlari shart emas.

To'g'ridan-to'g'ri terminning to'g'riligi bilan bog'liq bo'lgan talab har bir konsepsiya faqat bitta atamaga to'g'ri keladi, ya'ni shuning uchun bir xil ma'noli sinonimik atamalar mavjud emas. Shu narsa aniqki, bir xil narsa boshqacha nomlansa, predmet va tushunchalarni aniqlashtirish qiyin bo'lib boradi. Terminlarning ma'nolari va ularning ta'riflari mantiqiy tasniflash qoidalariga bo'ysunishi, obyektlar va tushunchalarni aniq ajratib ko'rsatishi, noaniqlik yoki nomuvofiqlikdan qochishi kerak. Va nihoyat, termin har qanday yon ma'nolardan xoli bo'lgan sof obyektiv nom bo'lishi kerak.

Boshqa til tizimlarida bo'lgani kabi, flora o'ld terminologik tizim ham til birliklari o'rtasidagi lingvopragmatik aspektga tayanadi. Lingvopragmatikaning maqsadi "tilni kontekstda o'rganish" - ijtimoiy, situatsion va boshqalar, ya'ni tilni aloqa vositasi sifatida o'rganishdir. Hozirgi vaqtda lingvopragmatika nazariya va amaliyotning chegaralari hali to'liq aniqlanmagan va juda xira bo'lib qolmoqda, ammo bu lingvopragmatikaning nutq nazariyasi kabi lingvistik bilim sohalari bilan yaqin o'zaro ta'sirini aks ettiradi, ya'ni harakatlar, nutq tahlili, shuningdek, sotsial-, etno- va psixolingvistika, antropologiya kabi.

Masalan, nemis tilidagi *Der Same* so'zi ya'ni urug' deyilganda nafaqat dehqonchilik uchun don-dun mahsulotlari balki, gullar urug'ini ham tushunishimiz mumkin ekan. Yoki *abreisen* atamasi o'zbek tilida aniq manzilga jo'nab ketmoq yoki tark etmoq ma'nosini anglatadi, *verdachtga* oid *Die Blume abreisen* terminida esa shubxa ma'nosini anglatadi. *Der Stock* termini bu qurilish sohasida uy qavati ma'nosida anglatadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abraham Werner. Terminologie zur neueren Linguistik. 2., völlig neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Tübingen: Max Niemeyer Verlag. 1988.
2. Калинину М.Ю. Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики. Москва. 1984.
3. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. Teil 1-2. Springer-Verlag. 1979.
4. Hamidulla Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi .Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent 2019002E
5. Eduard Isphording. Kräuter und Blumen. Verlag des Germanischen Nationalmuseums, 2008.  
© T. Yusupova, 2022.